

MUSIQIY-RITMIK FAOLIYAT ORQALI O‘QUVCHIDA IJODIY FAOLLIKNI RAG‘BATLANTIRISH IMKONIYATLARI

Axmedova Shirin Farxod qizi

TDPU “Musiqi ta’limi va san’at” yo‘nalishi

1- bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: Rejametova Nilufar Ilhomovna, TDPU

Annotatsiya: Maqolada musiqiy ritmik harakatlarni shakllantirishning ahamiyati, uning o‘quvchilar uchun pedagogik va estetik tarbiyadagi o‘rni muhokama qilinadi. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning ritmik harakatlarni ta’lim jarayonida qanday qilib muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkinligi bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi. Shuningdek, musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ritmik harakatlarning taraqqiyot jarayonlari, rivojlanish bosqichlari, musiqiy qobiliyatning rivojlanishdagi ahamiyati haqida fikr- mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, qobiliyat, musiqiy qobiliyat, musiqiy faoliyat, harakat, ritmik harakat, musiqiy ritm, ritmik mashq, ritm tuyg‘usi, emotsional rivojlanishi, estetik tarbiya, muvozanat va koordinatsiya, motorik ko‘nikma, sotsial ko‘nikma, harakat koordinatsiyasi, jismoniy ko‘nikmalarni rivojlantirish, ijtimoiy ko‘nikmalar, ritm sezgisi.

Аннотация: В статье рассматривается важность формирования музыкально-ритмических движений, их роль в педагогическом и эстетическом воспитании учащихся. Кроме того, даны практические рекомендации по успешному внедрению ритмических движений в образовательный процесс. Также высказываются мнения о развитии музыкальных способностей, процессах развития ритмических движений, этапах развития и значении музыкальных способностей в развитии.

Ключевые слова: музыка, способности, музыкальные способности, музыкальная деятельность, движение, ритмическое движение, музыкальный ритм, ритмические упражнения, чувство ритма, эмоциональное развитие, эстетическое воспитание, равновесие и координация, двигательные навыки, социальные навыки,

координация движений, развитие физических навыков, социальные навыки, чувство ритма.

Annotation: This article examines the importance of developing musical and rhythmic movements and their role in the pedagogical and aesthetic development of students. Practical recommendations for successfully integrating rhythmic movements into the educational process are also provided. Opinions are also expressed regarding the development of musical abilities, the processes of rhythmic movement development, the stages of development, and the significance of musical abilities in development.

Key words: music, abilities, musical abilities, musical activity, movement, rhythmic movement, musical rhythm, rhythmic exercises, sense of rhythm, emotional development, aesthetic education, balance and coordination, motor skills, social skills, motor coordination, physical skill development, social skills, sense of rhythm.

Kirish. Jahonda bo‘layotgan keskin o‘zgarishlar davrida bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, yuksak qobiliyatga ega bo‘lishini ta‘minlash, estetik tarbiyalash dolzarb muammoga aylanmoqda. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatga ega bo‘lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Har bir mamlakatning musiqa tarbiyasi g‘oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning ijtimoiy hayotiga xizmat qiladi. Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu xalqning milliy musiqa madaniyati, tili va madaniy an‘analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasining strukturasi, sistemasi (tizimi) va ilmiy-metodik yutuqlar boshqa millatning ma‘rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta‘sir etadi.

Jamyatimiz taraqqiyotida ma‘naviy va jismoniy sog‘lom avlodni tarbiyalash bugungi kunda bizning eng ustuvor vazifalarimizdan biri sanaladi. Zeroki qator aytilgan bu fikrlar zahirida har doimgidek yoshlar turadi, sababi ularning bugungi kundagi olgan ta‘lim-tarbiyasi nafaqat o‘zlari uchun balki yurtimiz taraqqiyoti uchun eng muhim poydevordir. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev bejizga “Agar mendan sizni nima qiynaydi- deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta‘lim va tarbiyasi deb javob beraman” - degan purma‘no fikrlari yaqqol dalilidir.

Shunday ekan, 20-asr boshlarida keng tarqalgan ritmika kelgan, shveytsariyalik taniqli musiqachi-o'qituvchi, bastakor, pianinochi, dirigor, Jeneva konservatoriyasi professori Emil Jak – Dalkroze (1865 - 1950) tomonidan yaratilgan ritmika bolalar qobiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqiy ta'lim bolalar va yoshlar uchun muhim sanaladi, chunki ularning emotsional rivojlanishi, estetik tarbiyasi va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, musiqiy ritmik harakatlar maktabgacha ta'lim va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ijtimoiy va jismoniy rivojlanish jihatidan muhim. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarni musiqiy ritmik harakatlarni shakllantirish va o'rgatishga tayyorlash juda muhimdir. Musiqiy ritmik harakatlar ta'lim jarayonida o'quvchilarga ko'p jihatdan yordam beradi:

✚ **Emotsional rivojlanish:** *Musiqiy ritmik harakatlar orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini ifoda etishga va o'zlarini his qilishga imkon yaratadi.*

✚ **Jismoniy ko'nikmalarni rivojlantirish:** *Harakatlar orqali bolalarda tana nazorat qilish, muvozanat va koordinatsiya rivojlanadi.*

✚ **Ijtimoiy ko'nikmalar:** *Jamoa bilan birga ishlash va ijodiy jarayonda ishtirok etish, bolalarning ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.*

Shunday ekan, musiqiy-ritmik harakatlar bolalarni hotirasini ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari biz bilamizki ular juda o'yinqaroq yana fikrlari tarqoqdirlar shuning uchun ham ular bilan har qanday dars davomida ritmik harakatlar bajarish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu bilan biz nafaqat bolalarning fikrini balki uzatilgan ma'lumotlarimiz hotirasida uzoq vaqt davomida saqlashlariga ham olib kelamiz. Sinfda 25-30 o'quvchi bo'lsa xar xil sharoit va xar hil muhitdan bolalar darsga kirib keladilar ular bilan dars 45 minut samarasiz ketishiga yo'l qo'ymayman desangiz albatta ular bilan musiqiy-ritmik harakat bajartiring. 45-minut dars samarasiz ketmasligi uchun 5-minut vaqtingizdan voz kechib ular bilan musiqiy ritmik harakatlar bajaring. Shunda o'qituvchiga bo'lgan qarashlari fanga bergan mehrlari sizni yana jo'shqinlantiradi. Agar sizda musiqa qo'yishning iloji bo'lmasa sheriy tarzda ham o'tkazishingiz mumkin. Biz bilamizki, yangi O'zbekiston yoshlari ilmga chanqoq va ularni ona vatanga sadoqat ruhini ham o'stirishimizni ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Musiy ritmik harakat qilgan farzandlarda mehr muhabbat kuchli bo'ladi.

Musiqaga asoslangan ritmik harakatlar o'quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu harakatlar turli yoshdagi o'quvchilar uchun moslashtirilgan bo'lib, ularning tanasini yaxshiroq boshqarish, moslashuvchanlikni oshirish va umumiy motorik ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Buning natijasida o'quvchilar o'z tanalarini yaxshiroq his qilishadi, muvozanat va koordinatsiyalari rivojlanadi, bu esa boshqa jismoniy mashg'ulotlarda va kundalik hayotda ham qo'l keladi.

Shuningdek, musiqaga asoslangan ritmik harakatlar stressni kamaytirish va o'z-o'zini ifoda qilish imkoniyatini beradi. Musiqaning takrorlanadigan ohanglari va temp o'zgarishlari bola psixikasini tinchlantirishi, ularni o'z his-tuyg'ularini yaxshiroq boshqarishga o'rgatishi mumkin. Bu jarayon ijtimoiy ko'nikmalar rivojiga ham yordam beradi, chunki jamoaviy mashg'ulotlarda ishtirok etish, guruh bilan harakatlanish o'quvchilarda hamkorlik qilish va o'zaro yordam ko'rsatish qobiliyatini rivojlantiradi.

Adabiyotlar tahlili. Dalkroze yaratilgan ritmika bolalar qobiyatini rivojlantirishda maqsadi "Ritmning maqsadi o'z izdoshlarini o'qishlari oxirida aytishlari mumkin bo'lgan darajaga yetkazishdir - emas, balki "men his qilaman" va, eng avvalo, ularda o'zini ifoda etishga bo'lgan cheksiz ishtiyoqni yaratish, ularning hissiy qobiliyatlari va ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishdan iborat.

Jeneva konservatoriyasida musiqa nazariyasi saboqlaridan dars berarkan, Dalkroze musiqani yaxshi eshitadigan ba'zi talabalar tartibsizlikdan aziyat chekishini kuzatgan. U ritm tuyg'usini, o'ziga xos ritmik tuyg'uni yanada samarali rivojlantirish uchun musiqiy pedagogikada yangi usullarni izlay boshladi. Musiqa ritmi insonning harakat qobiliyatlari, mushaklarning reaktivligi bilan chambarchas bog'liqligini tushungan Dalkroze musiqiy ritmni inson tanasining harakatiga o'tkazishga harakat qildi. Ritmik ta'lim usulini yaratish va loyihalash bo'yicha ishlar 1900-1912 yillarga to'g'ri keladi. Dalkrozening mashqlar tizimi badiiy gimnastika, keyinchalik - ritmik deb nomlandi. Ritmik mashqlar asta-sekin murakkablashib, insonning butun psixofiziologik ko'rinishiga ta'sir qildi, to'g'ri harakat odatlarini yaratdi, xotirani, barqarorlikni, diqqatni jamlash va taqsimlashni kuchaytirdi, ijodiy tasavvurni rag'batlantirdi.

E.J.Dalkrozening fikriga ko'ra, asab tizimi mushaklar kabi rivojlanishga mos keladi,

shuning uchun ritm tuygʻusiga ega boʻlgan odam oʻynashda, raqsga tushishda, qoʻshiq aytishda yaxshiroq boʻladi. Ritm har qanday san'atning asosidir, jumladan musiqa, she'riyat, haykaltaroshlik, arxitektura va boshqalar ritm va ritmik harakatlar asisoda shakllanadi va rivojlanadi. Musiqa va harakat orqali ritmni oshirgan Dalkroze darslari talabalarning kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini va jismoniy va aqliy kamchiliklarni bartaraf etgini payqaydi. Dalkroze ritm va ritmik harakatlarni yillar davomida tan olinishi uchun o'z uslubining to'g'riligiga g'ayrioddiy kuch, qat'iyat, fanatik ishonchga muhtoj edi. U badiiy gimnastika bo'yicha maxsus kursni o'tkaza boshlagan xonani ijaraga oladi va faqat 1905 yilda Jeneva konservatoriyasi devorlarida ritmni rasman o'rganishga ruxsat beriladi. Bu yillarda Dalkroze ko'p yozgan, eskirgan o'qitish usullarini tanqid qilgan. Uning ta'kidlashicha, ko'plab o'qituvchilar ko'pincha ijro etishdagi texnik qiyinchiliklarni engib o'tishni birinchi o'ringa qo'yishadi, asosiy narsani - musiqaga hissiy munosabatni, uni butun borlig'i bilan idrok etish qobiliyatini yo'qotadilar. Dalkroze buni bolalarning erta musiqiy rivojlanishi va ularning umumiy estetik tarbiyasi uchun zarur deb hisoblaydi. U, ayniqsa, bolalar uchun ritmning muhimligini ta'kidladi, chunki harakat ularning tanasining biologik ehtiyojidir.

Dalkroze o'zining rus talabalarini yuqori baholagan, Sankt-Peterburg va Moskvada ochilgan ritm kurslariga alohida umid bog'lagan. Mamlakatimizda musiqiy va ritmik ta'limning mahalliy tizimi yaratilgan bo'lib, uning asoschilari

N.G. Aleksandrova, V.A.Griner, M.A.Rumer, E.V.Konorova, N.P. Zbrueva, V.E.Yanovskaya, V.A.Shukshina, ularning shogirdlari va izdoshlari. Ritmni umumiy estetik ta'limning bir qismi deb hisoblagan rus o'qituvchilari unga ma'lum bir maqsadni berdilar, turli ta'lim muassasalarida maxsus o'qitish metodikasini ishlab chiqdilar. Shunday ekan, ritm turli yoshdagi va turli darajadagi musiqiy va motorli mashg'ulotlarni qamrab oladi. Bu o'z navbatida ritmik foydalanish imkoniyati, hissiy ta'sir kuchi, jozibali va faol faoliyat orqali musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyati tufayli katta qiziqish uyg'otadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ritmning har bir yo'nalishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, shu bilan birga ularni yagona maqsad - harakat orqali musiqiy idrokni faollashtirish birlashtiradi.

Ritmik darslarni juda erta yoshdan boshlash tavsiya etiladi. Bolalar harakatchan, ular musiqani harakat orqali yorqinroq va hissiyroq idrok etadilar, ularda yorqin va quvonchli his-tuyg'ularni uyg'otadi. Bola erkin va oson harakatlardan, musiqaning tananing plastikligi bilan uyg'unligidan katta mamnuniyat oladi, uning hayotiyliги ko'tariladi.

Tahlillar va asosiy natijalar. Ritm musiqa, uni idrok etish va hissiy munosabatga asoslanadi. Shuning uchun ritmning asosiy tamoyili musiqadan harakatga o'tadigan qonundir. Ritm va ritmik harakatlar musiqa san'atiga chuqurroq kirib borish va tushunish vositasi sifatida ishlatiladi. Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borgan taniqli rus psixologi B.M.Teplovning musiqa ta'limining dastlabki bosqichlarida musiqiy-ritmik tuyg'uni rivojlantirishning boshqa, to'g'ridan-to'g'ri va maqsadga muvofiqroq usulini topish qiyin, ritmdan ko'ra, musiqa ritmini oddiy va bolalar uchun qulay harakatlarga o'tkazish deb bergan ta'rif, ritmik harakatlarni rivojlantirishni, musiqa fani taraqqiyotiga muhim ahamiyatga ega ekanligini izohlashga yordamlashadi (1-rasm).



1-rasm. Ritmik mashqlar.

O'quvchilar uchun eng qulay harakatlar tabiiy yoki asosiy harakatlardir. Har xil turdagi yurish, yugurish, sakrash, sakrash, prujinali oyoq harakatlari, oddiy harakatlar yordamida ritm haqidagi g'oyalar osongina o'zlashtiriladi.

O'quvchi musiqani idrok etar ekan, tinglovchilar birinchi navbatda uning umumiy xarakterini his etadilar, uning kayfiyatini ushlaydilar. Ba'zi asarlar quvnoq, quvnoq,

o'ynoqi, ayyor, quvnoq, yorqin, jonli, bayramona bo'lishi mumkin, boshqalari esa yumshoq, sokin, muloyim, silliq, sokin, ohangdor, chizilgan, sodda, o'ychan, mehribon va hokazo mavjudligi ham musiqa harakatlarga ma'lum bir xarakter beradi, ularga tegishli hissiy rang beradi. Musiqa tabiatining o'zgarishi, ba'zi yangi soyalarning paydo bo'lishi, bir xil xarakterdagi intonatsiyalar, harakatlar tabiatining o'zgarishiga olib keladi.

Ritmik harakatlar, ayniqsa, bolalarning musiqaga nisbatan qiziqishini kuchaytiradi va ularning san'atga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Bu esa, keyinchalik musiqiy va san'atga oid faoliyatlarga qiziqish bildirishiga turtki bo'lib, ularning o'ziga ishonchini va ijodkorligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, musiqaga asoslangan ritmik harakatlarni o'quv dasturlariga kiritish ularning jismoniy, aqliy va ruhiy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Musiqiy-ritmik harakatlar komponentlari pedagogik yondashuvda juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvda quyidagi asosiy jihatlar ko'rib chiqilishi mumkin: Musiqiy ta'lim: Musiqiy-ritmik harakatlar yordamida bolalarning musiqiy ta'limini rivojlantirish. Bu, avvalambor, musiqani tinglash, tushunish va ifodalash imkoniyatlarini yaratadi. Ritmik harakatlar bolalarda ritm sezgisini shakllantirishga yordam beradi. Bu, ularning harakat koordinatsiyasini va jismoniy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi. Musiqiy-ritmik harakatlar orqali bolalar ijodiy fikrlashni, o'z his-tuyg'ularini ifodalashni o'rganadilar. Bu jarayon ularning shaxsiy rivojlanishiga katta yordam beradi. Guruhda musiqiy-ritmik harakatlar bajarish bolalarni bir-biri bilan muloqot qilishga, jamoaviy ishga o'rganishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bolalar birgalikda musiqiy harakatlar bajarish orqali jamoaviy ishni o'rganadilar, bu esa ularning sotsial ko'nikmalarini oshiradi.

Ritmik harakatlar bolalarda ritm sezgisini shakllantirishga yordam beradi. Bu, ularning harakat koordinatsiyasini va jismoniy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi. Musiqiy-ritmik harakatlar orqali bolalar ijodiy fikrlashni, o'z his-tuyg'ularini ifodalashni o'rganadilar. Bu jarayon ularning shaxsiy rivojlanishiga katta yordam beradi. Biz bilamizki bolalar xar xil erkaliklar tufayli bolalarda ruhiy stresslar paydo bo'ladi. Bundan halos bo'lishda ya'ni bundan halos bo'lishda, bolalar bilan ochiq muloqot qilish, ularning hissiyotlarini tushunish va qo'llab-quvvatlash juda muhimdir. Bolalarga o'z his-

tuyg'ularini ifodalash imkoniyatini berish, ularni tinglash va ularga zaruriy xavfsizlik va sevgi tuyg'usini taqdim etish ruhiy stressni kamaytirishda samarali bo'lishi mumkin. Shuningdek, bolalar uchun ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish, muntazam ravishda o'yinlar va mashg'ulotlar, musiqiy-ritmik harakatlar orqali ularning e'tiborini chalg'itish, jismoniy faoliyatni rag'batlantirish va ijtimoiy muloqotda bo'lishlarini ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, ota-onalar yoki tarbiyachilar, o'qituvchilar tomonidan to'g'ri model ko'rsatish, stressni boshqarish va salbiy holatlarga qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish ham bolalarning ruhiy salomatligini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Bolalar ruhiy stressdan xalos bo'lishlari uchun ularning hissiy va aqliy holatiga e'tibor qaratish juda muhimdir. Shuning uchun, ular bilan muntazam ravishda samimiy muloqot qilish, hissiyotlarini tushunishga harakat qilish va ularga o'zlarini erkin ifoda etishga imkon berish ya'ni ular yoqtirgan musiqalar orqali birgalikda ritmik harakatlar bajarish kerak. Ota-onalar va tarbiyachilar, o'qituvchiular bolalarga stressni boshqarish usullarini o'rgatishlari, masalan, chuqur nafas olish, meditatsiya yoki tinchlantiruvchi faoliyatlar orqali stressni kamaytirishlari mumkin. Shuningdek turli xildagi ritmik harakatlar bajarishlari maqsadga muvofiqdirlar.

Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida topilgan qoya tosh tasvirlari, arxeologik topilmalar bu yerda raqs san'ati juda qadimiy san'at turi ekanligidan dalolat beradi. Zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto» davridayoq raqs san'ati shakllanib, xalq va professional raqs – ikki yo'nalishda rivojlanishni boshlagani haqida tarixiy ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, turli taraqqiyot bosqichlarida yurtimizda raqs va o'yinlar o'zaro ta'sirlashuvi natijasida «Beshqarsak», «Katta o'yin», «Lazgi», «Kema o'yin», «Ashshadaro» kabi qadimiy o'yinlar vujudga kelgan.

XX asrga kelib, raqs san'ati Buxoro raqsi, Xorazm raqsi, Farg'ona raqsi yo'nalishlarida shakllanib, zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan sahnaviy xalq raqsi sifatida rivojlandi. Ushbu yo'nalishlarning har biri asr davomida bir necha tarixiy bosqichni bosib o'tib, o'ziga xos shakl, uslub va mazmunga ega bo'ldi. Bir qator davlat va xalq raqs jamoalari jahon miqyosida tan olindi. O'zbek milliy raqs san'ati tarixan juda katta yo'lni bosib o'tgan bo'lib, uning ildizlari qadimiy xalq o'yin va tomoshalariga

borib taqaladi. XX asrga kelib, bu san'at turi o'zining qadimiy an'analari bilan bir qatorda, jahon miqyosida shakllangan yangi tajribalarga asoslangan holda rivojlanish yo'liga o'tdi. Xalqning ko'p yillik milliy raqs san'ati tajribalari yevropacha rusumdagi sahna madaniyati talablari bilan uyg'unlashtirildi. Milliy merosimiz ko'p yillik an'analarni saqlab qolgan holda, yangicha badiiy tamoyillar asosida rivojlanmoqda.

Bugungi kunda milliy raqs san'atimiz o'zining boy tarixiy ildizlari va an'alarini davom ettirgan holda, yangi tajribalar hamda ijodiy yo'nalishlar bilan boyib bormoqda. Ma'lumki, raqs - bu nafaqat san'at turi, balki xalq ruhiyatining, uning dunyoqarashi, urf-odati va hayot tarzining ifodasidir. Raqs orqali insonlar o'z tuyg'ularini, ichki kechinmalarini va quvonchlarini ifoda etadilar. Shu bois, raqs san'ati doimo yangilanib, zamon talablari asosida rivojlanishda davom etmoqda. San'atning rivoji, avvalo, professional kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog'liq. Bunday yuksak malakali mutaxassislarni yetishtirish uchun raqs ta'limini yanada rivojlantirish, uni jahon andozalari darajasiga olib chiqish zarur. Bu boradagi ishlarning dastlabki bosqichida yoshlarda milliy an'alar ruhini shakllantirish, ularni o'zbek raqs merosi, uning tarixi, ildizlari, uslubiy xususiyatlari bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ustozlardan avlodlarga o'tib kelayotgan raqs asoslari, badiiyat, obrazlilik, xatti-harakatlarning ma'naviy va estetik ma'nosini anglash hissini rivojlantirish lozim.

Bugungi kunda Farg'ona, Xorazm va Buxoro raqs maktablari badiiy uslublari asosida rivojlanib kelayotgan milliy o'zbek raqs san'ati ana shu madaniy merosimizning ajralmas qismidir. Har bir maktab o'ziga xos joziba, xarakter, uslub va tashqi ko'rinishga ega bo'lib, bir-biridan aniq farqlanadi. Jumladan, Buxoro raqsi maktabi boshqa maktablarga nisbatan o'ziga xosligiyu yuksak did bilan ajralib turadi. Uning shakllanishi tarixan Buxoro xonligi davri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, raqs harakatlarida og'ir-bosiqlik, viqor, aristokratik holat ustuvorlik qiladi.

Buxoro raqslari keng harakatlar bilan, sokin, ammo boy ma'no yuklangan ifodali xatti-harakatlar orqali ijro etiladi. Raqsda liboslar ham alohida o'rin tutadi - ular tilla rangdagi zardo'zlik san'ati bilan bezatilgan bo'lib, raqsning badiiy estetik qimmati va sahnadagi ta'sirchanligini yanada oshiradi. Bu raqslarda nafislik, nazokat, ichki teran ma'no mujassam bo'lib, ular orqali tomoshabin o'ziga xos ruhiy zavq va estetik bahra

oladi.

Milliy raqs san'atimizning har bir maktabi, shu jumladan, Farg'ona va Xorazm raqslari ham o'ziga xos yondashuvga ega. Farg'ona raqsi nafislik va lirizm bilan ajralib turar ekan, Xorazm raqsi esa kuchli dinamizm, ritm va ifoda kuchi bilan tanilgan. Ana shu maktablar uyg'unligi, ularning boy tajribasi milliy raqs san'atining yanada yuksalishiga zamin yaratmoqda. Milliy raqs maktablarining yutuqlari nafaqat o'zbek san'ati tarixida, balki jahon madaniy merosi rivojida ham alohida o'rin tutadi. Bu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan ustoz san'atkorlar, raqqos va raqqosalar o'zbek raqs san'atining avlodlardan avlodga o'tishini, uning asliyatining yo'qolmasligini ta'minlab kelmoqda. Ayniqsa, yoshlarda milliy g'urur va san'atga mehr uyg'otish, ularni bu borada bilimli va malakali mutaxassislar etib yetishtirish dolzarb vazifalardan biridir.

Zamonaviy raqs sahnalari endilikda nafaqat an'anaviy uslub, balki yangi texnologiyalar, yorug'lik effektlari va dramatik qurilmalardan foydalanishni ham talab qilmoqda. Shu sababli, bugungi san'atkor nafaqat raqsni ijro eta olishi, balki uning sahnaviy talqinini, mazmunini, estetik ta'sirini ham chuqur anglaydigan bo'lishi zarur. Bundan tashqari, xalqaro sahnalarda milliy raqslarimizni targ'ib qilish, boshqa madaniyat vakillari bilan madaniy almashinuvlar orqali ham tajriba almashish – bugungi kunning dolzarb ehtiyojidir. Shu yo'lda raqs festivallari, tanlovlar, ustoz-shogird an'anasini rivojlantirish, madaniyat va san'at maktablarining faoliyatini yanada mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shubhasiz, o'zbek milliy raqs san'ati o'zining boy tarixi, badiiy chuqurligi va xalqona ruhiyati bilan kelajakda ham xalqimiz madaniy hayotida muhim o'rin egallab boraveradi. Uning zamonaviy talqini esa an'anaviylik va yangilik uyg'unligi asosida yanada boyib, yurtimiz madaniyatining yorqin ifodasi bo'lib qoladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, musiqani ifodalashning muhim vositalaridan biri ritm va ritmik harakatlar bo'lib, har bir musiqa asariga xos bo'lgan ritmik harakatlar, his-hayajonlar musiqaning ta'sirchanligini oshiradi, musiqiy tasvirlarni yanada yorqinroq ifodalaydi. Shunday qilib, o'zbek milliy raqs san'ati nafaqat estetik zavq manbai, balki xalqimizning boy ma'naviy va madaniy merosining ajralmas qismidir. U xalqning ruhiy holati, hayot tarzi, dunyoqarashi, quvonch va g'amlarini o'zida mujassam etgan

san'at turidir. Har bir raqs harakati, sahnadagi obraz va ifoda o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixiy xotirasi, estetik didi va ichki dunyosini namoyon qiladi.

Yosh avlodni ushbu san'atga jalb etish, ularda estetik did, madaniy savodxonlik va milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridandir. Shu boisdan raqs ta'lim tizimining yanada takomillashuvi, raqs maktablari faoliyatining qo'llab-quvvatlanishi, ustoz-shogird an'anasi asosida yangi avlod san'atkorlarining yetishib chiqishi davlatimizning madaniy siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Kelajakda raqs san'atimiz zamonaviy sahna texnologiyalari, jahon miqyosidagi badiiy tendensiyalar bilan uyg'un holda rivojlanib, o'zining noyob milliy xususiyatlarini asrab qolgan holda yanada yuksalishiga shubha yo'q. Milliy an'analar, boy tarixiy tajriba va zamonaviy yondashuvlar uyg'unligida o'zbek raqsi nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyo sahnalarida o'ziga xos ohang va obraz bilan porlayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nutq. – T.: “O'zbekiston”, NMIU, 2021y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016- yil 7-dekabr. T.: “O'zbekiston”, NMIU, 2022-y.
3. Aydin Yeshimbetova “Xalq saxna raqsini o'qitish uslubiyoti” Fan ziyosi Toshkent 2023yil.
4. O.A. Shodiyeva “To'garaklarni tashkil etish” o'quv qo'llanma. SamDU., 2023.
5. Z.K.Fazliyeva “O'zbek raqsini o'rganish uslubiyoti”. O'quv qo'llanma. T.: “Musiqqa” nashriyoti, 2020.
6. Umurova M. Y. Formation of Patriotic Feeling in Youth Students through Folk Songs //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 99-103.

7. Umurova M. Y. Practical Possibilities of Spiritual-Moral Formation through Folk Songs //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN. – T. 2795. – №. 546X. – С. 55.
8. Ортиков О. Р. Махалла как социально-культурный очаг народа //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 20-23.
9. Ortiqov O. R. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalari (oliy ta'lim mussasalari misolida) //экономика. – с. 1130-1135.
10. Ortiqov O. R. Globallashuv jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish omillari //scientific progress. – 2021. – т. – №. 5. – с. 160-165.